




## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4598,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 148,8 mln. AQSh dollariga yoki 3,1 %ga kamaydi.


Pandemiya davrida mamlakatimizda ko‘pchilik faoliyat sohalari to‘xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 1779,3 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 99,9 %) va import hajmi 2818,8 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 95,1 %) yetdi. Hisobot davrida 1039,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019- yil yanvar-dekabrga nisbatan, %da)





## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-dekabr mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya Federatsiyasi	1 026,5	259,0	767,5	22,3
Qozog'iston	785,5	186,9	598,6	17,1
Xitoy	771,6	251,9	519,7	16,8
Turkiya	679,7	569,6	110,1	14,8
Koreya Respublikasi	195,3	10,2	185,1	4,2
Afg'oniston	119,2	119,2	0,0	2,6
Qirg'iz Respublikasi	91,2	64,5	26,7	2,0
Tojikiston	80,5	54,6	25,9	1,8
Germaniya	78,3	2,5	75,8	1,7
B.A.A	68,5	67,7	0,8	1,5
Ukraina	62,9	34,9	28,0	1,4
Latviya	52,1	0,2	51,9	1,1
Litva	49,6	0,3	49,3	1,1
Italiya	46,2	3,6	42,6	1,0
Belarus	37,8	12,9	24,9	0,8
Niderlandiya	30,6	18,2	12,4	0,7
Braziliya	28,2	0,0	28,2	0,6
Irlandiya	27,4	0,0	27,4	0,6
Polsha	24,4	9,3	15,1	0,5
Ozarbajon	23,7	10,9	12,8	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,3 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019- yilning shu davriga nisbatan 107,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 58,3 %ni, 2020- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,7 %ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8 %ga kamaydi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020- yil yanvar-dekabr, % hisobida)






## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya va Afg'oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan 1779,3 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019- yilning shu davriga nisbatan 99,9 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (67,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,4 %), turli xil tayyor buyumlar (6,8 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (4,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,7 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,0 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-dekabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1779,3	641,4	1137,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	274,8	178,4	96,3	15,4	27,8	8,5
Ichimliklar va tamaki	1,9	1,6	0,2	0,1	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	76,5	32,7	43,8	4,3	5,1	3,8
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	2,7	0,2	2,5	0,2	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	48,3	35,2	13,1	2,7	5,5	1,2
Sanoat tovarlari	1208,0	254,5	953,6	67,9	39,7	83,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	35,4	20,2	15,2	2,0	3,1	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	120,2	117,2	3,0	6,8	18,3	0,3
Xizmatlar	11,4	1,3	10,1	0,6	0,2	0,9





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-dekabr)



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	99,9	110,4	94,8
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	164,0	141,8	2,3 m.
Ichimliklar va tamaki	57,3	52,7	135,8
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	41,2	61,9	33,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	27,9 m.	4 m.	47,4 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	145,4	160,7	115,8
Sanoat tovarlari	96,9	93,3	97,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	75,9	97,2	58,8
Turli xil tayyor buyumlar	143,8	148,0	67,7
Xizmatlar	77,1	29,4	97,8





## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020- yil yanvar-dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Birlashgan Arab Amirliklari va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1518,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,4 %ini tashkil qiladi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 215,8 mln. dollar qiymat ega 347,8 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 56,3 % o'sgan, naturada – 2,1 martaga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 94,8 mln. AQSh dollariga teng 182,9 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 56,1 %ga o'sgan), shuningdek 65,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 89,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 43,0 %ga o'sgan).

### 2020- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
89,2 ming tonna	55,3 ming tonna	18,8 ming tonna	1,6 ming tonna	182,9 ming tonna
65,9 mln. AQSH dollari	48,1 mln. AQSH dollari	5,0 mln. AQSH dollari	1,9 mln. AQSH dollari	94,8 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 160,7 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 9,0 %ini tashkil qiladi.




## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida import hajmi 2818,8 mln. AQSh dollari (2019- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (30,4 %), sanoat tovarlari (18,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (15,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.





## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-dekabr)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	2818,8	1488,9	1329,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	379,0	295,5	83,5	13,4	19,8	6,3
Ichimliklar va tamaki	4,8	4,3	0,5	0,2	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	434,5	396,2	38,3	15,4	26,6	2,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	104,0	102,3	1,7	3,7	6,9	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	80,2	64,2	16,0	2,8	4,3	1,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	211,4	59,6	151,8	7,5	4,0	11,4
Sanoat tovarlari	526,0	344,7	181,3	18,7	23,1	13,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	855,8	168,5	687,3	30,4	11,3	51,7
Turli xil tayyor buyumlar	147,2	24,1	123,1	5,2	1,6	9,3
Boshqa turdagi tovarlar	25,3	12,9	12,4	0,9	0,9	0,9
Xizmatlar	50,6	16,6	34,0	1,8	1,1	2,6

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (26,6 %) va sanoat tovarlari (23,1 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (51,7 %) va sanoat tovarlari (13,6 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-dekabr, % hisobida )

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	95,1	106,3	85,0
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	94,0	128,4	48,2
Ichimliklar va tamaki	170,2	184,3	103,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	83,4	83,9	79,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	3 m.	3 m.	101,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	106,2	118,1	75,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	95,9	99,9	94,4
Sanoat tovarlari	90,5	88,0	95,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	90,4	147,4	82,6
Turli xil tayyor buyumlar	120,5	96,7	126,6
Boshqa turdagi tovarlar	161,2	336,0	104,6
Xizmatlar	120,4	128,3	116,8





## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020- yil yanvar-dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Latviya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2308,6 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,9 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 202-86-59